

## 2020- yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2020-yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

---

**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

---

**Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlar soni - 15 839 birlikda**

**Ularning umumiyligi  
sonidagi ulushi - 64,3 %**

**O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish  
sur'atlari - 115,6 %**




**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi – 64,3 %, sanoat - 15,0 %, qurilish - 10,4 % ga yetdi va atigi 10,3 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (39,4 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 12,3 % ni tashkil etdi.




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 8,9 % ga yetdi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 13705 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 36,5 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 11,2 %, tashish va saqlash - 9,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,9 %, axborot va aloqa - 1,5 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar - 37,7 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 79,2 % ga to'g'ri keladi.

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, yirik tashkilotlar ulushi 20,8 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik  
subyektlari to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 125 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 12 537 tani tashkil etdi va o'sishi esa 20,4 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlar-ning ulushi 59,2 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 58,4 % ekvivalentida qayd etildi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta ahamiyatga egadir.

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 337,1 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi bor yo'g'i 316,4 mlrd. so'mga oshdi. Taqposlama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,3 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdarligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yil yanvar-may oylarida)**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3 337 109,3</b>	<b>97,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	162 731,0	106,6
Moliyaviy xizmatlar	604 321,1	146,0
Transport xizmatlari	729 012,3	90,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	678 399,9	90,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	142 913,1	76,6
Savdo xizmatlari	1 075 241,1	93,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	78 434,6	78,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	174 518,9	91,5
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	51 686,5	78,4
Ijara xizmatlari	76 937,1	83,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	57 957,1	79,6
Shaxsiy xizmatlar	59 947,9	79,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	35 958,5	67,5
Boshqa xizmatlar	87 450,0	88,1


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi 32,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (21,9 %), moliyaviy xizmatlar (18,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,9 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining tarkibi, % da  
(2020- yil yanvar-may oylarida)**



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi, shuningdek, ijara sohasidagi xizmatlar hajmida uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha past ulush qayd etildi - 1,5 %, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,7 %, hamda shaxsiy xizmatlarda 1,8 % qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,  
2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan % da  
(2020- yil yanvar-may oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (46,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarda (6,6 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (32,5 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (23,4% ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (21,6 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar (21,4 % ga), shaxsiy xizmatlar (21,0 % ga), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (10,4 % ga), ijara xizmatlari (16,8 %), shuningdek, transport sohasidagi (9,7 % ga) xizmatlarda pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2020- yil yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 32,2 % ni tashkil etib, bu 1 075,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 78,4 % iga to'g'ri keladi.

### **Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yil yanvar-may oylarida)**


#### **Savdo xizmatlari - 100,0 %**



Avtomobillar va mototsikllar  
ulgurji va chakana savdosini,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 16,0 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)



2020- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 604,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,1 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 46,0 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### **Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yil yanvar-may oylarida)**

Moliyaviy xizmatlar umumiylajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,1 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,4 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiylajmaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,5 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yil yanvar-may oylarida)**




2020- yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning hajmi 162,7 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 106,6 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yil yanvar-may oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida noshirlik xizmatlari - 1,7 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,0 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,0 %, va axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.



### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)



2020- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 174,5 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 91,5 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2020- yil yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi 4,3 % ni tashkil etib, bu 142,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 76,6 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 142,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan. Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 4,3 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yil yanvar-may oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmi-da oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,9 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yil yanvar-may oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,1 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)


2020- yil yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 51,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiylajmida ularning ulushi 1,5 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 78,4 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2020- yil yanvar-may oylarida)**



Xizmatlarning umumiyo'chligi hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatlidir, 61,7 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tuman va shaharlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush G'ijduvon (9,8 %), Buxoro (3,7 %), Vobkent (3,4 %) tumanlari va Kogon shahri (3,1 %)da qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Qorovulbozor (1,7 %), Kogon (1,8 %), Olot (2,2 %), Shofirkon (2,2 %) va Jondor (2,3 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyo'chligi hajmida Buxoro shahrining ulushi 59,5 % ni tashkil etgan.

*Kogon tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 1,7 % kuzatilgan.*

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

Ko'rilibotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Buxoro shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 203,7 mlrd. so'mga oshdi va 2 052,2 mlrd. so'mga yetdi.

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yil yanvar-may oylarida)**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
<b>Buxoro viloyati *</b>	<b>3 337 109,3</b>	<b>97,3</b>	<b>1 732,2</b>
Olot	73 092,6	92,8	737,6
Buxoro	124 471,7	91,5	747,6
Vobkent	111 170,3	90,2	795,8
G'ijduvon	327 890,6	95,9	1 079,3
Jondor	76 120,2	90,3	437,0
Kogon	57 822,4	97,1	739,4
Qorako'l	90 582,4	90,5	552,3
Qorovulbozor	56 446,0	85,8	3 084,5
Peshko'	87 431,3	90,1	712,6
Romitan	103 868,0	92,9	735,1
Shofirkon	73 781,1	90,1	416,0
<i>shaharlar</i>			
Buxoro sh.	2 052 183,4	100,5	7 316,2
Kogon sh.	102 249,3	93,7	1 673,5

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'ijduvon (327,9 mlrd. so'm), Buxoro (124,5 mlrd. so'm), Vobkent (111,2 mlrd. so'm) tumanlari va Kogon shahri (102,2 mlrd. so'm)da qayd etildi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yil yanvar-mayl oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 732,2 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 1 732,2 ming so'm

2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

## Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

65-223-79-41